



**PIRIMQUL QODIROV ROMANLARIDA VAFO VA XIYONAT TIMSOLI
BO‘LGAN AYOLLAR OBRAZI(“YULDUZLI TUNLAR”ROMANI
MISOLIDA)**

Tolibxonova Feruza Nazirxon qizi

ToshDO‘TAU magistratura

adabiyotshunoslik:adabiyot nazariyasi

yo‘nalishi

feruzatolibxonova0105@gmail.com +998991331356

Annotatsiya: Mazkur maqolada Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”romanidagi Qutlug‘ Nigorxonim,Zuhra begim va Oyisha begim obarzalari tahlil qilinadi.Ularning asrda tutgan o‘rni va barchasining mavqeyi bir xil bo‘lsada,ammo xarakter xususiyatiga ko‘ra bir-biridan qanchalik farq qilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: malika,xiyonat,vafo,sadoqat,nafs,ko‘rgulik,jazo

Abstract: This article analyzes the characters of Kutlug Nigorkhanim, Zuhra Begum, and Aisha Begum in Pirimkul Kadyrov's novel “Yulduzli tunlar”. Although their role and position in the century are the same, it is discussed how they differ from each other according to their character traits.it’s about.

Key words: princess,betrayal,oyalty,devotion,lust,punishment

Tarix zarvaraqlariga nazar tashlar ekanmiz,erkaklar bilan bir qatorda ayollarning ham nomlari tarannum etib kelinganiga guvoh bo‘lamiz. “Ayollarga imkon qadar iliq muomalada bo‘lishga harakat qildim(Amir Temur).Ushbu jumlar ham ayollarga ehtirom yuksak darajada bo‘lganidan dalolat beradi.Ayollar orasidan ham qudratli hukumdorlar,oqila va dono maslahatgo‘ylar,shoira va zukko olimalar yetishib chiqqan.Sharq mamlakatida ularni ko‘plab uchratish



mumkin.Chunonchi,Amir Temurning rafiqasi-Saroy Mulk Xonim ,Shohruh Mirzoning rafiqasi-Gavharshod begim,Husayn Boyqoroning xotini-Xadicha begim,Umarshayx Mirzoning tong'ich qizi-Xonzoda Begim, Boburning qizi-Gulbadan begim va hokozo.Bunday nomlarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi.Ushbu malikalar haqida tarixiy badiiy asarlarda juda ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirilgan.Ularning har qaysi o'ziga xos bo'lib malikalarning turli jihatlarini ochib bergan.Mana shunday badiiy asarlardan biri Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanidir.Romanda yozuvchi hukumdorlar bilan birgalikda ularning siyosati va chiqaradigan qarorlarida muhim rol o'ynaydigan malikalarni ham e'tirof etgan.Asarni o'qish jarayonida turfa taqdir,turfa xarakter egasi bo'lgan malikalar obraziga duch kelamiz.Xususan,biz bu holatni Qutlug' Nigorxonim va Zuhra begim,Mohim va Oyisha begim timsollarida ko'rishimiz mumkin.Ushbu malikalar hukumdorning oldidagi mavqeyi jihatdan teng bo'lsa-da,ammo ichki olami,dunyoqarashi atrofdagilarga bo'lgan munosabati bilan bir-biriga zid bo'lgan obrazlar sifatida gavdalan tirilgan..Asardagi malikalar bilan bog'liq voqealar va ularning qiyin vaziyatlarda chiqargan qarorlari bunga gapimizga dalil bo'la oladi.

Qutlug' Nigorxonim-Umarshayx Mirzoning suyuqli rafiqasi,taxt vorisining onasi.Asarda oqila va mulohazakor ayol sifatida tasvirlangan.Ammo hukumdorlar saroyida azaliy urf-odat bo'lgan kundoshlik balosi Qutlug' Nigorxonimning ham chetlab o'tmadi..Umarshayx Mirzo barcha rafiqalari orasida Qutlug' Nigorxonimga alohida ehtirom ko'rsatar,bu esa o'z navbatida boshqa malikalarning g'ashini qo'zg'atar edi.Buni asardagi quyidagi jumalardan ham payqash mumkin:

"Umarshayx Mirzo barcha xotinlariga iloji boricha iltifot ko'rsatmoqchi bo'ldi.Xotinlari orasida eng yoshi ulug'i va eng obro'parasti Fotima Sulton bo'lganligi uchun Mirzo birinchi bo'lib uni yuqoriga taklif qildi,ammo Mirzo unga chap tomondan joy ko'rsatdi.Eng mo'tabar hisoblangan o'ng tomonga esa Qutlug' Nigorxinimni taklif qildi.Fotima Sulton o'zining hurmati Qutlug' Nigorxonimnikidan past ekanligini his qilib,ko'zlari alam bilan qisildi".



Qutlug' Nigorxonimning obro'si qanchalik baland bo'lmasin, Xonim farzandidan uzoqda yashar, uning diydoriga intizor bo'lib kun kechirar edi. Ammo kutilmaganda hukumdorning vafot etishi temuriylarning boshiga katta kulfatlar olib keldi. Qutlug' Nigorxonim o'n ikki yoshida taxtga o'tirgan o'g'li Boburga o'zining adolatli maslahatlari bilan doimo homiylik qildi, hattoki boshqa shaharlarga yurish qilmoqchi bo'lgan paytlarda uni begunoh odamlarning qonini to'kmaslikka, barcha muammoni tinchlik yo'li bilan bartaraf etishga chorladi. Eng og'ir va tahlikali paytlarda ham o'g'lining yonida haqiqiy ayollik matonatini ko'rsatib u bilan yelkadosh bo'ldi.. U nafaqat umr yo'ldoshiga vafodor rafika, balki davlat ishlarida mulohazakor, uzoqni ko'zlab ish tutuvchi adolatli ayol, shuningdek, farzandlariga mehribon ona bo'ldi. Taqdirning chigal vaziyatlarida ham adolatni tanladi, yuzaki hoy-u havaslardan, o'tkinchi orzulardan, yengil-yelpi yashash tarzidan o'zini va farzandlarini uzoqda tutdi. Umrining so'nggiga qadar farzandi yonida bo'lib, olamdan o'tdi. Shu jihatlariga ko'ra Qutlug' Nigorxonim obrazi asardagi haqiqiy vafodor ayol timsoli bo'la olgan.

Romanda Qutlug' Nigorxonimga qarama qarshi obraz sifatida Zuhra begimni ko'rsatish mumkin. Zuhra begim Sulton Mahmudxonning suyukli rafiqasi, Samarqand taxtida o'tirgan Sulton Ali mirzoning onasi edi. Davlat ishlarini boshqarishda ham ta'siri sezilarli darajada edi. Ammo farzand tarbiyasini eplolmagani uchun o'g'li aysh-u ishratni sevuvchi bo'lib ulg'aydi. Samarqand xavf ostida qolganda ham jo'yali qaror chiqara olmadi. Boburga yordam berish o'rniga unga dushmanlik qilib, onasini gapiga kirib najotni Shayboniixonidan kutdi. Bu esa kelgusida Sulton Ali mirzoning ham Shayboniixoniga rafika bo'lish istagida yurgan Zuhra begimning ham boshiga yetdi.

Sulton Mahmud vafot etganidan so'ng beva qolgan Zuhra begim obro'li podshoga turmushga chiqishni istar, uning nazarida Shayboniixon Zuhra begim uchun eng munosib podsho edi. Shuning uchun u Shayboniixonning yolg'on gaplariga uchdi va Samarqandning osonlikcha qo'ldan ketishiga sababchi



bo'ldi. Shuni ta'kidlash joizki, taqdir hamisha beshavqat, siz qanday harakat qilsangiz, u ham sizga shunday javob qaytaradi. Buni Zuhra begim taqdirida ham ko'rishimiz mumkin. Shayboniyxon saroyiga unga yor bo'lish umidida borgan Zuhra begim xayoliga keltirmagan ko'rguliklarni ko'radi. Asarda bu voqea yozuvchi tomonidan mahorat bilan tasvirlangan:

Zuhra begim xonai xosga kirganda Shayboniyxon taxt ustida o'tirar edi. Zuhra begim ikki bukilib ta'zim qilar ekan, Shayboniyxon u bilan taxtdan tushmasdan so'lashdi.

-Xush keldingiz, begim.

Xondan boshqacha muomala kutgan Zuhra begim to'satdan ko'ngli buzilib ko'ziga yosh oldi.

-Xon hazratlari, men o'zimni sizga qurbon qildim. Farzandimni, xonu monim-hammasini marhamatingizga ishonib topshirdim.

-Xotirjam bo'ling maqsadingiz bizga ma'lum. Xudo xohlasa murodingiz hosil bo'lmay qolmas.

Shayboniyxon bir vaqtlar Zuhra begimni juda go'zal deb eshitib "o'zimga g'unchachi qilib olarman deb o'ylagan edi. Shuning uchun begimga yozgan xatiga bir necha satr she'r qo'shgan edi. Ammo uni bugun o'z ko'zi bilan ko'rgandan keyin begimdan ixlosi qaytdi. Xon "Murodingizga yetasiz"-dedim. Murodi-erga tegish ekan zo'r er topib berib, so'zimning ustidan chiqay deb o'yladi.

-Mansur baxshi siz xotinga yolchimay yuribsiz,-dedi Shayboniyxon.

-Pastdagi begim kelinchak yonglig' yasanib kelibdi. Shuni sizga uzatayikmi?

Mansur baxshi o'rnidan sakrab turdi, quvonganidan og'zi qulog'iga yetguday kulib ta'zim qildi:

-Marhamatingizdan aylanay hazratim, jon deyman.

Hamma kulib yubordi. Shayboniyxon bu tugunni ham sulton va a'yonlarga yoqadigan bir ustalik bilan yechganidan ko'pchilik mamnun edi.



Ushbu satrlarning o‘ziyiq Zuhra begimning ayanchli taqdiridan guvohlik beradi. Chiqargan noto‘g‘ri qaroridan farzand dog‘ida kuygan begim, Mansur baxshining qiynoqlariga bardosh berolmay o‘zi ham dunyodan ko‘z yumadi. Lekin hech kim unga achinmadi, bularning barchasi o‘z qilmishlarining tovonini deb hisoblashdi. Nafsigah erk bergan, mol-u davlat ko‘zini ko‘r qilgan Zuhra begimning taqdiri mana shunday achinarli tarzda yakun topdi. Shuning uchun xalq orasida bekorga aytilmagan: ”Qilmish-qidrmish” deb.

Asardagi keyingi malika obrazi Bobur mirzoning rafiqasi Oyisha begimdir. Oyisha begim Farg‘ona va Samarqandning maliksi. U Boburning amakivachchasi bo‘lib temuriylar shajarasiga mansub. Begim Boburning amakisi Samarqand va Buxoro podshosi Sulton Ahmad Mirzoning qizi edi. Bobur besh yoshligida Oyisha begim bilan unashtirilgan. Ular 1499-yil unashtirilganiga o‘n bir yil bo‘lgandan so‘ng turmush qurishgan. Bobur va Oyisha begimning munosabatlari turmushining dastlabki yillarida yaxshi edi, ular uch yillik turmushidan keyin qiz farzandli bo‘ladi. Ismini Faxriniso deb qo‘yishadi. Asarda ismning qo‘yilishi Boburning g‘alabasi bilan bog‘liqligi aytib o‘tilgan. Ammo vaqt o‘tgan sayin bu munosabatlar darz keta boshlagan edi. Saroyda hech qanday qiyinchilik ko‘rmay o‘sgan Oyisha begim Boburning muvaffaqiyatsizliklari, u shahardan bu shaharga ko‘chib darbadarlikda yurishlariga bardosh bera olamadi. Buning ustiga qizlari Faxrinisoning o‘limi ular orasidagi darz ketgan munosabatga yana bir zarba bo‘ldi. Bobur Samarqandda yengilib panoh istab Toshkentga borganda tog‘asidan ham iliq munosabat ko‘rmadi. Bu yerdan ketmoqchi bo‘lganda esa Oyisha begim unga qattiq e‘tiroz bildirib birga ketmasligini aytadi va ichida yig‘ib yurgan alamlarini Boburning yuziga to‘kib soladi. Buni quyidagi parchalarda ko‘rishimiz mumkin.

-Hozir men uchun Toshkentdan tinch joy yo‘q.

-Bu hammasi-muvaqqat tinchlik. Ko‘p o‘tmay Shayboniixon bu yerga ham bostirib kelur.



-Men egachimning qanoti ostida hech narsadan qo‘rqmaymen.Dargohingizdan adoi tamom bo‘lib kelib,egachimning yonida yana tirildim.

-Mening dargohimda qiynalganingiz rost.Lekin...yaxshi kunlarimiz ham bo‘lgan ediku...Insof bilan bir eslang axir.

-Dargohingizda qachon yaxshi kun ko‘ribman,Mirzam,mudom safar,mudom bemehrlik.

-Nahotki hammasini unutgansiz?

-Yo‘q,ko‘rgan azob-uqubatimni umrbod unutmasmen.

Bobur Toshkentni tark etayotganda Oyisha begimning talabiga binoan unga shariat bo‘yicha uch taloq berib ajrashadilar.Ammo hammasi bu bilan tugamaydi.Boburning qiynalgan vaziyatida unga bevafoqlik qilgan Oyisha begimga ham taqdir tez orada bevafoqlik bilan javob qaytaradi.

Shayboniyxonning qutqusi Toshkentni ham chetlab o‘tmadi.Qo‘rqoqlik qilgan Mahmudxon shaharni jangsiz topshirdi va taslim bo‘ldi,haram ahli esa Shayboniyxonning mulozimlariga hadya sifatida bo‘lib berilidi.Bular orasida Boburning sobiq xotini Oyisha begim ham bor edi.U Shayboniyxonning amakisi, ellik besh yoshli Ko‘chkinchixonga,to‘qal xotin qilib berildi.Shum taqdir hech kimni ayamadi,ayniqsa,xiyonotkorlarni.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki,asarda har bir obraz ma’lum bir vazifa bajargan xoh u salibiy,xoh ijobiyb bo‘lsin.Adabiyotda “Go‘zal obraz” va “Xunuk obrz” degan tushunchalar mavjud.Biz bu atamani yuqoridagi obrzalarga qo‘llashimiz mumkin.Xayolimizda esa Qutlug‘ Nigorxonim “go‘zal” Oyisha begim va Zuhra begim “xunuk “obraz bo‘lib gavdalanadi.Bu fikr noto‘g‘ri Agar o‘quvchiga ma’lum bir obraz o‘z tasirini o‘tkaza olsa,asarni o‘qiganda qahramonga nisbatan nafrat yoki yaxshi ko‘rish hissi uyg‘onsa,demak bu obrazlar “go‘zal” obraz hisoblanadi.Mana shunday mahorat bilan obraz yarata olgan yozuvchi



esa,shubhasiz, Pirimqul Qodirivdir.Biz bunga yuqoridagi tahlilardan ham guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

Z.M.Boburi. (2008). *Boburnoma*. Toshkent: O‘qituvchi.

Pirimqul Qodirov. (2004). *Yulduzli tunlar*. Toshkent: O‘zbekiston.

Turg‘un Fayziyev. (2013). *Temuriy malikalar*. Toshkent: O‘zbekiston.

Arxiv.uz